

Android tizimidagi CLICK START ilovasini ishlatish bo'yicha YO'RIQNOMA

Mundarija

1. Umumiy ma'lumot.....	1
2. Tizimda ish boshlash	1
3. Bosh ekran.....	5
4. Agar "CLICK-PIN"ni unutgan bo'lsang	9
5. Endi esa Hamyonni ishga tushiramiz☺.....	10

1. Umumiy ma'lumot

CLICK Start – CLICK kompaniyasining bolalar va o'smirlar uchun maxsus yaratilgan yangi ilovasi.

Ro'yxatdan o'tish bilan, ilovada shaxsiy hamyoning ochiladi. Ota-onang yoki yaqinlaring bu hamyonga mablag' yuborishi, Sen esa bu pullarni sarflashing mumkin.

Sevimli kafeda pitsa xarid qil, do'stlaringa, yoki bobo va buvijoningga, ularni xursand qilish uchun sovg'a xarid qil, yo'lkirani to'la, supermarketda mahsulotlar xarid qil yoki mablag'ingni ko'plab boshqa joylarda sarfla.

Bundan tashqari sen orzuinga pul jamg'arishing va mablag'ni to'g'ri taqsimlashni o'rganishing mumkin.

Moliyaviy savodxonlik kelajakda senga hali ko'p kerak bo'ladi.

Asosiysi esa, endilikda xarid qilish yoki qilmaslik, sovg'a qilish yoki qilmaslik kabi muhim qarorlarni o'zing qabul qilasan.

Aziz do'stim, agar senga biror narsa tushunarsiz bo'lsa, ota-onangdan, yaqinlaringdan so'rashga hech uyalma, biz esa ilovamizdan foydalanish paytida tug'ilishi mumkin bo'lgan barcha savollaringga batafsil javob beramiz.

2. Tizimda ish boshlash

CLICK Start ilovasidan foydalanish uchun, uni Play Market do'konidan yuklab olish, ishga tushirish, tilni tanlash va maxsus formani to'ldirish lozim.

1,2,3-rasmlar – Ilova Play Marketda qanday aks ettirilgan, uning ishga tushgandagi tashqi ko'rinishi va telefon raqamini kiritish lozim bo'lgan oynaning tashqi ko'rinishi.

Telefon raqami kiritilgandan keyin, tizim senga avtorizatsiyadan o'tishing uchun kerak bo'lgan kod yozilgan SMS-xabarnomani yuboradi. Bu kodni 4-rasmda ko'rsatilgan oynaga kirit. Kod 5 raqamdan tashkil topgan.

Iltimos, bu kodni hech kimga yuborma! Hozirda shu orqali pulingni olib qo'yishga harakat qiluvchi firibgarlar juda ham ko'p.

4 va 5-rasmlar – SMS-xabarnomadagi kodni kiritish oynasi.

Agarda bir daqiqa ichida kodni kiritmasang, ekranda xabar paydo bo'ladi (6-rasm). Agar adashib, noto'g'ri telefon raqamini kiritgan bo'lsang, avvalgi ekranga qaytishing yoki quloqchin aks ettirilgan tugmaga bosib, qo'llab-quvvatlash xizmati bilan bog'lanishing mumkin.

6-rasm – Takroran SMS yuborish va qaytarib qo'ng'iroq qilish funksiyalari.

Agar barchasini to'g'ri bajarsang, ilova sendan maxsus parol yaratishingni so'raydi (uning nomi CLICK-PIN). Bu parol CLICK Start ilovasiga kirish uchun har safar kiritiladi. Parolni ikki marta yozish zarur (7,8-rasmlar).

7,8-rasmlar – CLICK-PIN yaratish.

Diqqat: Agarda Sen ilgari CLICK Evolution yoki CLICK Start ilovasida ro'yxatdan o'tgan bo'lsang, yangi CLICK-PIN yaratish o'rniga, CLICK tizimida telefon raqamingni ro'yxatdan o'tkazgan paytda yaratilgan eski "CLICK-PIN"ni kiritishing lozim. Agar eskisini unutgan bo'lsang, pastdagi 4-bo'lim bilan tanishib chiq.

CLICK tizimida hech qachon ro'yxatdan o'tmagan bo'lsang, hech ikkilanmay yangi CLICK-PIN yarat!

CLICK-PIN 5 raqamdan iborat bo'ladi. Bu raqamlar bir xil yoki tartibli bo'lmasligi kerak. Unutma, yengil parollarni firibgarlar osonlik bilan topib oladi.

<i>Oson parollar (iltimos, bunday parollarni ishlatma).</i>	<i>Biz qiyin parol ishlatishni maslahat beramiz!</i>
<i>12345, 54321, 55555, 11111, 22222, 33333, 44444, 66666, 77777, 88888, 99999, 00000</i>	<i>12321, 45898, 76110 va hokazo ☺ Maslahat: Osonlik bilan eslab qolish uchun, tug'ilgan kuning sanasini yoki telefon raqamingni bir qismini ishlat.</i>

Agar hammasini to'g'ri bajargan bo'lsang, ilova sen bilan salomlashadi (9-14-rasmlar), birgalikda hamyon yaratishimiz uchun barcha savollarga hech ikkilanmay javob ber.

Maslahat: tug'ilgan kuningni to'g'ri kirit. Bu ma'lumot turli vaziyatlarda hamyoningni qayta tiklash uchun kerak bo'ladi.

9-14-rasmlar – Salomlashish va muhim savollarga javoblar ☺

3. Bosh ekran

Barcha savollarga javob bergandan so'ng, Bosh ekran ochiladi (15-rasm). Tabriklaymiz, sen hammasini uddalading va endi o'z shaxsiy hamyoningga egasan, yashasin! ☺

15-rasm – Bosh ekran.

Qara, hammasi bloklarga bo'lingan va juda oson:

Mening pullarim blokida quyidagilar mavjud:

Hamyoningdagi pul miqdori;

Hamyoning raqami. Sen bu raqamni ko'chirib olib, ota-onangga yoki yaqinlaringga, ular mablag' yuborishlari uchun yuborishing mumkin;

Hamyondagi pul balansini ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik uchun ko'zchalar;

Surat va fonni hali o'zgartirish mumkin emas, ammo biz bu ustida ishlamoqdamiz.

CLICK PASS

Supermarket yoki do'konlarda bizning skanerlaydigan uskunamiz o'rnatilgan. Sen ushbu uskunada maxsus CLICK PASS kodini skanerlab to'lovni amalga oshirishing mumkin.

16-rasm – “CLICK PASS”ning tashqi ko'rinishi.

Agar to'lov o'tgan bo'lsa, “CLICK PASS”da yashil rang yonadi, o'tmagan bo'lsa, qizil.

Supermarketlarda (Makro, Korzinka) sen sotuvchiga CLICK orqali to'lamoqchiligingni aytishing, va telefondagi kodni CLICK PASS uskunasi orqali skanerlashing lozim.

QR-skaner

Ko'plab do'konlarda sen QR-kod deb ataluvchi oq-qora to'rtburchak nakleykaga ko'zing tushishi mumkin. QR-kodning tashqi ko'rinishi:

17-rasm – QR-kodlarning tashqi ko'rinishi.

QR-skanerni tanlaganda, sen kamerani ushbu kodga qaratishing lozim, ilova kodni skanerlagandan keyin, ekranda to'lov summasi aks ettiriladi.

Sen kerakli summani kiritishing va "To'lash" tugmasini bosishing lozim.

Aytgancha, Mening QR-kodim bo'limida sen shaxsiy QR-kodingni ko'rsatishing yoki yuklab olishing va ota-onang yoki yaqinlaringa, ular pul o'tkazishi uchun yuborishing mumkin. Ular kodni skanerlab, hamyoninga pul o'tkazishi mumkin.

18-rasm-QR-kodni ko'rsatish yoki yuklab olish.

To'lov

Bu bo'limda kategoriyalar bo'yicha to'lovlar mavjud. Hozircha ro'yxatda atigi 5 kategoriya mavjud, ammo yaqin orada ularning soni ancha oshadi.

Qanday to'lash mumkin?

To'lash juda oson, kerakli kategoriyani ochib, unda o'zingga kerakli do'kon, apteka yoki boshqa joyni tanla, to'lov summasini kirit va "Davom etish" tugmasini bos.

Keyin hamma narsani to'g'ri tanlaganingga va to'g'ri kiritganingga ishonch hosil qil va "To'lash" tugmasini bos.

Tamom! Sen birinchi xaridingni amalga oshirding!☺

19-23-rasmlar – Telefon raqami hisobini to'ldirish misoli.

Sozlamalar

Ushbu bo'limda sen quyidagi imkoniyatlarga egasan:

Shaxsiy ma'lumotlar (yaqin orada mavjud bo'ladi);

Til: Taqdim etilgan 3 tildan birini tanlashing mumkin;

Xavfsizlik: bu yerda sen faol uskunalarni ko'rishing va barmoq izi orqali ilovaga kirishni qo'shishing mumkin;

Ilova haqida: bu yerda ilovadan foydalanish qoidalari aks ettirilgan, bo'sh vaqting bo'lganda ular bilan tanishib chiqishni unutma☺

Ilovadan chiqish: ushbu funksiyani tanlagandan so'ng, qayta kirish uchun yana bir bor telefon raqamingni kiritishing, SMS bilan tasdiqlashing va "CLICK-PIN"ni kiritishing kerak bo'ladi;

Qo'ng'iroq qilish: senga CLICK kompaniyasi qo'llab-quvvatlash xizmatining telefon raqami taqdim etiladi. Bu raqamga ota-onang yoki yaqinlaring bilan birgalikda qo'ng'iroq qilishingni maslahat beramiz.

Yozish: ushbu tugmani bosganingda, biz seni maxsus Telegram-botimizga yo'naltiramiz. U yerda bizga yozishing uchun ro'yxatdan o'tishing kerak bo'ladi. Ro'yxatdan o'tish juda ham oson, botdagi yo'riqnomaga amal qilsang bas.

24-rasm – Sozlamalar ekrani.

4. Agar “CLICK-PIN”ni unutgan bo’lsang

“CLICK-PIN”ni unutgan bo’lsang, uni qayta tiklashing uchun senga 5 urinish beriladi. Agarda uni 5 marta noto’g’ri kiritsang, xavfsizlik maqsadida ilova bloklanadi. Uni blokdan yechish uchun CLICK qo’llab-quvvatlash xizmatiga qo’ng’iroq qilishing lozim. Ammo sen unutilgan “PIN”ni o’chirib o’rniga yangi PIN kiritish imkoniyatiga egasan.

25-27-rasmlar - Agar parolni unutsang, uni o’chirib yangisini yaratish uchun ushbu yozuvli oynaga bos. Parolni o’chirish tugmasini bosganingda 6 raqamli SMS-ni kiritishing uchun maxsus ekran ochiladi.

6 raqamli kodni kiritganingdan so’ng, Tizim sendan yangi CLICK-PIN kiritishingni so’raydi. Agar sen barchasini to’g’ri bajarib, yengil parol ishlatmagan bo’lsang, senda Bosh ekranga kirish imkoniyati paydo bo’ladi. Iltimos, ushbu Bosh ekran 15-rasmdagi Bosh ekrandan farqlanishiga e’tibor qarat. Hamyonda katta harflar bilan “AKTIVLASHTIRISH” deb yozilgan. Bu, Sen “CLICK-PIN”ni o’zgartirding degani, endilikda bu hamyoning egasi senligingni tasdiqlashing kerak bo’ladi. Bu juda ham oson!

28-rasm – CLICK-PIN o’zgargandan so’ng Bosh ekran tashqi ko’rinishi.

5. Endi esa hamyonni aktivlashtiramiz

“AKTIVLASHTIRISH” tugmasiga bos, tug’ilgan kuningni kirit va hamyoning ishlatilishga tayyor!

29,30-rasmlar – Hamyonni aktivlashtirish.

Agarda sen hamyon yaratishda kiritilgan tug’ilgan kuni sanasini 3 marta noto’g’ri kiritsang, 3 urinishdan keyin ilova bloklanadi va uni blokdan yechish uchun CLICK qo’llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishga to’g’ri keladi.

Yo’riqnomani to’liq tushunding deb umid qilamiz. Agarda savollaring bo’lsa, bizning botda yozib yubor, biz albatta javob qaytaramiz.

Senga omad tilaymiz, barchasini uddalashingga aminmiz!

Hurmat bilan CLICK.